**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

«Tasdiqlayman»
Termiz davlat universiteti
rektori
A. Maraximov
2023 y. «__» 08 ________.

# SERVIS GEOGRAFIYASI

*fanidan*

## *O'QUV DASTURI*

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi | 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| Ta'lim sohasi | 530000 – Fizika va tabiiy fanlar |
| Ta'lim yo'nalishi | Geografiya (o'rganish ob'ekti bo'yicha) 70530402 |

Termiz - 2023

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| | 2023-2024 | 3 | 5 | |
| Fan/modul turi | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Tanlov | O'zbek | | 4 | |
| 1. Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Servis geografiyasi | | 60 | 90 | 150 |

2.

**I.FANNING MAZMUNI**

Fanni o'qitishdan maqsad - magistrlarga jamiyatni hududiy tashkil etilishi va unda servis soxalarning tutgan o'rni va axamiyati, ijtimoiy voqea-xodisalarni shakllanishi va rivojlanishi, aholining ijtimoiy rivojlanishi qonuniyatlarini o'rgatish va turli katta-kichiklikdagi murakkab servis -iqtisodiy tizimlar xamda ularning elementlarini ilmiy tahlil qilish va xulosalar olish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - magistrlarga:

- iqtisodiy va ijtimoiy geografiya va unda servis geografiyaning tutgan o'rni va ahamiyatini tushuntirish;
- ijtimoiy xodisalarni rivojlanishi va ularni ilmiy tadqiq qilishning uslub va usullari bilan tanishtirish;
- servis sohalarni hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi istiqbollarini aniqlashni o'rgatishdan iborat.

**II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)**

**1-mavzu. Servis geografiyaning ob'ekti, predmeti va vazifalari.**

Servis geografiyaning tadqiqot ob'ekti va predmeti. Uning bevosita inson, aholi bilan bog'liqligi. Servis geografiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni va roli. Ijtimoiy geografiyani keng va tor ma'noda tushunish. Ijtimoiy geografiya va iqtisodiy geografiya, ijtimoiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanishi. Ijtimoiy geografiya va aholi geografiyasi. Ijtimoiy geografiyaning tuzilishi. Ijtimoiy soxalarning tarkibi. Ijtimoiy-geografik termin va tushunchalar.

G'arbda ijtimoiy geografiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi. Sobiq Ittifoq davrida ijtimoiy geografiyaning rivojlanishi. Ijtimoiy geografiyaning rivojlanishiga katta xissa qo'shgan olimlar va ularning ishlari. Ijtimoiy geografik tadqiqotlarning mohiyati, xususiyatlari va ilmiy-amaliy jihatlari. Ijtimoiy geografiyada rayonlashtirish masalalari. Ijtimoiy geografiya va ijtimoiy siyosat. Ijtimoiy geografiyaning vazifalari.

**2-mavzu. Xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish .**

**Asosiy tushunchalar.**

Xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishini o'rganish geografiyaning muhim masalasi ekanligi. Xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etishning asosiy tushunchalari. Xizmat ko'rsatish muassasalarini joylashtirish va hududiy tashkil etish tushunchasi. Muassasa, muassasalar turi, xizmat ko'rsatish markazlari, xizmat ko'rsatish zonasi, xizmat ko'rsatish areali, xizmat ko'rsatishning hududiy tizimlari va x. Xizmat ko'rsatishni tashkil etilishining pog'onali – ierarxik shakli.

**3-mavzu. Aholiga xizmat ko'rsatish markazlari**

Xizmat ko'rsatish markazlarining shakllanishi va rivojlanishini hududga xizmat ko'rsatish tarmoqlari to'rini ketma-ket joylashtirish sifatida tasavvur qilish mumkin. Turli to'rlarning qancha ko'p elementlari bir nuqtada to'plansa, shunchalik rivojlangan va yirik xizmat ko'rsatish markazi unga mos keladi. Har bir tarmoq nisbatan mustaqil, o'z tamoyil va me'yorlariga hamda uning rivojlanishiga jamiyat ajratadigan resurslarga muvofiq holda rivojlanadi. Biroq, odatda xizmat ko'rsatish sohalarini xududiy tashkil etishda **aglomeratsion samaradorlik** kuchli namoyon bo'ladi: yangi turdagi muassasalar ilgari mavjud bo'lgan muassasalardan ko'proq to'planganligi bilan farq qiluvchi yirik axoli punktlarida vujdga keladi. Xizmat ko'rsatishning aglomeratsiyalangan joylashuvi iste'molchilariga javob beradi.

**4.mavzu.Zamonaviy servis faoliyati va xizmat turlari.**

Servis xizmatlarining rivojlanish bosqichlari Servis faoliyati tasnifi va geografiyasi. Servis faoliyatining iqtisodiy-ijtimoiy geografik xususiyatlari

**5.mavzu.Tibbiy xizmatlarning hududiy jihatlari.**

Tibbiyot aholini ijtimoiy rivojlanishining muhim jabxasi ekanligi. Tibbiyot tizimi – tibbiyot geografiyasining tadqiqot ob'ekti sifatida. Uni geografik jixatdan o'rganishning ilmiy-amaliy axamiyati. Tibbiyot geografiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni. Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Boshqa fanlar bilan aloqasi. Tibbiyot geografiyasining shakllanishi va rivojlanishi. Zamonaviy tuzilishi. Nozogeografiya. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish geografiyasi. Tibbiy-geografik rayonlar. Zamonaviy tibbiyot tizimining tuzilishi va rivojlanishi. Aholining tibbiy xizmatga bo'lgan extiyojlari, uning turlari va qondirilishi darajasi. Tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy tashkil etilishi.

**6.mavzu. Rekreatsiya va servis geografiyasi.**

Rekreatsiya geografiyasi nimani o'rganadi? Uning geografiya fanlari tizimida tutgan o'rni va axamiyati. Rekreatsiya geografiyasini vujudga kelishi va rivojlanishi.

Rekreatsiya resurslari va ularning aholi xayotida, turizmni rivojlanishdagi axamiyati. Aholining dam olishini hududiy tashkil etish. Hududning rekrekatsiya saloxiyatini baholash.

**7.mavzu. Aholiga xizmat ko'rsatish soxalari geografiyasi.**

Aholiga xizmat ko'rsatish soxalari geografiyasining ob'ekti va predmeti. Fanlar tizimida tutgan o'rni va zamonaviy tuzilishi. Aholini xizmatlarga bo'lgan extiyojlari va

uni qondirilishining hududiy tafovutlari. Xizmat ko‘rsatish muassasalarini hududiy tashkil etilishi. Muassasalar tizimi. Xizmat ko‘rsatish markazlari va ularning joylashuvi.

Markaziy joylar nazariyasi. Aholiga xizmat ko‘rsatishni shahar va qishloq joylarda hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda aholiga xizmat ko‘rsatish soxalarining roli.

**8-mavzu. Turizm geografiyasi.**

Turizm tushunchasi va uning servis geografiyasi bilan aloqadorligi, bog‘liqligi, turizm ijtimoiy geografiyaning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida rivojlangan va ayrim davlatlarda milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning asosi ekanligi

**9-mavzu. O‘zbekistonda xizmatlar sohasi geografiyasi**

O‘zbekistonda xizmatlar turlari va ularning ulushi, hududiy tafovutlari, viloyatlar kesimida servis xizmatlari ko‘rsatkichlari, O‘zbekistonda xizmat ko’rsatish sohalarining rivojlanishi.

3\.

**III. Amaliy mashg’ulotlari bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar**

1.Asosiy sotsial geografik termin va tushunchalarni o’rganish

2.Statistik ma’lumotlar asosida O‘zbekiston va uning viloyat va tumanlarini geodemografik rivojlanishini tahlil qilish.

3Sotsial infrastruktura va aholiga xizmat ko’rsatish sohalari tarkibini o’rganish

4.Viloyat va qishloq tumanlarini pullik xizmatlar ko’rsatish darajasiga ko’ra gruxlash

5.Aholiga xizmat ko’rsatish kartalari tahlili. Sog’liqni saqlash tizimi

6.Aholiga xizmat ko’rsatish kartalari tahlili. Ta’lim tizimi

7.Qishloq tumanlarini infrastruktura salohiyatiga ko’ra guruhlash va tahlil qilish

8.O’zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishini statistik tahlil qilish

9\. Viloyat va tumanlar bo‘yicha chakana savdo aylanmasini tahlil qilish.

10.Statistik ma’lumotlar asosida alohida olingan viloyatning ijtimoiy infrastruktura salohiyatini baholash

Amaliy mashg’ulotlar maxsus jihozlar bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o’qituvchi tomonidan o’tkaziladi. Mashg’ulotlar faol va interfaktiv usullarda yordamida o’tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo’llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**
**(Independent study and independent work)**

Mustaqil ta’lim ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishdan tashqari fan dasturida ko‘rsatilmagan, ammo fan bo‘yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo‘shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriq savollarini o‘z ichiga oladi.

1. Servis geografiyaning ob’ekti, predmeti va vazifalari Servis xizmatlarining rivojlanish bosqichlari
2. Zamonaviy servis faoliyati va xizmat turlari Servis faoliyati tasnifi va geografiyasi Servis faoliyatining iqtisodiy-ijtimoiy geografik xususiyatlari
3. Tibbiyot geografiyasi Tibbiy xizmatlarning hududiy jihatlari Nozogeografik tadqiqotlar
4. Rekreatsiya va servis geografiyasi Rekreatsion faoliyatning tarkibiy xususiyatlari tasnifi
5. Aholiga xizmat ko‘rsatish soxalari geografiyasi Xizmat kursatish sohalarini hududiy tashkil etish
6. Ta’lim geografiyasi Turizm geografiyasi
7. Qishloq joylar geografiyasi Din geografiyasi
8. O‘zbekistonda xizmatlar sohasi geografiyasi O‘zbekiston xizmatlar sohasini rivojlantirish muammo va istiqbollari

**Izoh - Mustaqil ta’lim va mustaqil ish mavzulari hamda ularning bajarilish shakllari , tegishli maksimal ball va topshirish muddatlari modul – kredit bo’yicha taqsimot jadvalida berilgan**

4\.

**V. Ta’lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes**
**(Professional Competences)**

Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishi faoliyatida bo‘lajak geograf geotizimlar hamda tabiat va jamiyat munosabatlarining qonuniyatlarini bilishi zarur. Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashib borayotgani insonning tabiat qonuniyatlarini chuqur bilishini, ho‘jalik faoliyatida landshaftlarning strukturali-dinamik holatini, geoekologik vaziyatni hisobga olish, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, geoekologik vaziyatni optimallashtirishni talab etadi. Servis geografiyasi aynan shunday ko‘nikma va bilimlarni berishi lozim bo‘lgan fan hisoblanadi..

**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari( Educational technologies and): methods:**

ma’ruzalar; kompyuter texnologiyasi asosida slaydlar namoyishi.
amaliy mashg’ulotlar berilgan topshiriqlar asosida olib bajariladi.;
atlas va yozuvsiz xarita.;
interfaol keys-stadilar;
taqdimotlar qilish;

5\.

**VII. Kreditlarni olish uchun talablar(Requirements for obtaining loans):**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish,

yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirish.

**6.**

## VIII. TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (LIST OF RECOMMENDED LITERATURE)


### Asosiy adabiyotlar

1.Nazarov M.I., Tojieva Z.N. Ijtimoiy geografiya.O’quv o’llanma.T., “Universitet”,2003.

2.Merkusheva L.A. Geografiya sferы obslujivaniya (Teoriya i metodologiya). Krasnoyarsk, 1989.

3.Alekseev A.I., Kovalev S.A., Tkachenko A.A. Geografiya sferы obslujivaniya. Ucheb.posobie. Kalinin, 1988.

4.Abramov M.A. Geografiya servisa (Sfera obslujivaniya).- M.:Mысl, 1985.

### Qo‘shimcha adabiyotlar

1.Sotsial iqtisodiyot. O’quv qo’llanma. prof. K.S.Saidov tahriri ostida. T., 2005.

2.Lyosh A. Geograficheskoe razmeщenie xozyaystva.M., 1959.

3.Saushkin Yu. G. Ekonomicheskaya geografiya: istoriya, teoriya, metodы, praktika. M., 1973.

4.Buryan A.P., Merkusheva L.A., Chepkasov P.N. Geografiya sotsialnoy infrasturukturы Urala. Ucheb.posobie. Perm, 1984.

5.Atlas Uzbekistana. -T.,2018,

6.Garret N., Kris S. Geografiya v diagrammax. Oksfordskie uchebnыe posobiya. M., «Izd.Astrel», 2004.

### Elektron manbalar:

1. www.uznature.uz – O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi sayti.
2. www.eso.uz – O‘zbekiston ekologik harakati sayti.
3. www.un.org/esa/sustdev/ – Birlashgan millatlar tashkiloti(BMT)ning barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.
4. www.unesco.org – BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti sayti.
5. www.unep.org – BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturi sayti.
6. www.undp.org – BMTning rivojlanish dasturi sayti.
7. www.unese.org/env/esd/ – BMTning iqtisodiyot komissiyasi sayti
8. www.worldresources.org – Jahon tabiiy resurslar sayti.
9. www.unfra.org – BMTning aholishunoslik dasturi sayti.
10. www.who.org – Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining sayti.
11. www.biodiv.org – Biologik xilma-xillik bo‘yicha sayt.
12. www.carec.kz – Markaziy Osiyo mintaqaviy markaz sayti.
13. www.amazon.com
14. www.Ziyo.net.
15. www.undp.uz
16. www.gwpcacena.org
17. www.bookse.org
18. www.geogr/msu.ru
19. www.MGPU.ru/materials/GEOGRAPH.swf.


**7.** **Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

**8.** **Fan (modul) uchun ma’sul:**

**Erdonov Muxamadi Nuraliyevich** – geografiya kafedrasi mudiri, g.f.n.

**Abdunazarov Husan Menglievich** – geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n.

**9.** **Taqrizchilar:**

**G’o’dalov Mirkomil** – Jizzax davlat pedagogika universiteti “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasi mudiri, dotsent, g.f.n.

**Sattorov A.U.** - Termiz davlat pedagogika instituti ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi boshlig’i, g.f.n., dotsent.